

**M.SAPARNIYOZOVA, N.AHMEDOVA,
D.ABDULLAYEVA**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHINI
BAJARISH BO'YICHA USLUBIY
TAVSIYALAR**



TOSHDO'TAU



0000000532

Toshkent – 2012

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI


M.SAPARNIYOZOVA, N.AHMEDOVA, D.ABDULLAYEVA

**BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARIŞH
BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR**

Uslubiy qo'llanma

Qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri

Ta'lim yo'nalishi: 5141100 – O'zbek tili va adabiyoti



Toshkent – 2012

Annotatsiya

Mazkur uslubiy qo'llanma o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabalari hamda usbu yo'nalish bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari uchun uchun mo'ljallangan. Qo'llanma talabalarni ilmiy tadqiqotga yo'llash, bitiruv malakaviy ishi va kurs ishlariga qo'yiladigan talablar hamda uni bajarishga doir uslubiy ko'rsatmalar, ilmiy tadqiqot ishini shakllantirish masalalarini o'z ichiga oladi.

Taqrizchilar: O.TO'XTASINOVA, Qo'qon DPI O'zbek tilshunosligi kafedrası mudiri, filologiya fanlari nomzodi
SH. HAYDAROV, Jizzax DPI O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Mazkur uslubiy qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti ilmiy kengashining 28.12.2012 yildagi 4-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Bitiruv malakaviy ishi va unga qo'yiladigan talablar

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010-yil 9-iyundagi 225-sonli buyrug'i bilan "Oliy o'quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablar" qarori tasdiqlangan.

Bitiruv malakaviy ishni bajarishning maqsad va vazifalari

Bitiruv malakaviy ishni bajarish – oliy o'quv yurti bakalavriatida talabalarni o'qitishning yakuniy bosqichlaridir.

Malakaviy ishni bajarish maqsadi: ta'lim bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish, olingan bilimlarni muayyan ilmiy, texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy vazifalarni hal etishda qo'llash;

ijodiy ishlash, ishlab chiqilayotgan masalaning (muammoning) qo'yilish jarayonidan boshlab, uni to'la nihoyasiga yetkazish bo'yicha qaror qabul qilishda bo'lgan mas'uliyatni his etishga o'rgatish;

zamonaviy ishlab chiqarish, iqtisodiyot, texnika va madaniyatning rivojlanishi sharoitida talabalarni mustaqil ishlashga tayyorgarligini ta'minlash.

Bitiruv malakaviy ishlarning mavzusi

Malakaviy ishlar mavzusi muammoning zamonaviy holatini va iqtisodiyot, ishlab chiqarish, texnika, ijtimoiy sohalar, fan, ta'lim va madaniyatning istiqbolli rivojlanishini aks ettirish kerak.

Malakaviy ishlar mavzusi mutaxassis chiqaruvchi kafedra tomonidan belgilanadi va oliy o'quv yurti yoki fakultetning ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda uch yilda bir martadan ortiq ko'rib chiqilmaydi.

Malakaviy ishlar mavzusining yillik ro'yxati bitiruv amaliyoti boshlanishiga qadar yoki bitiruv kursining boshida e'lon qilinadi.

Talabalariga (reytinglari bo'yicha kamayish tartibida) malakaviy ishlarning tanlash huquqi beriladi. Talaba yoki talabaning o'qishi uchun

to'lov-kontrakt to'lovchi buyurtmachi zaruriy asoslar bilan malakaviy ishlar mavzusi bo'yicha o'z variantlarini taklif etishlari mumkin.

Malakaviy ish mavzusi va rahbari talabaga biriktirish kafedraning taqdimnomasi bo'yicha rektorning buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

Ish rahbari, malakaviy ishning mavzusiga muvofiq talabaga malakaviy ishga tegishli materiallarni to'plash bo'yicha (jumladan, malakaviy amaliyot o'tkazish davrida ham) topshiriq beradi. Topshiriqning shakli oliy o'quv yurtining o'quv bo'limi tomonidan belgilanadi. Topshiriq malakaviy ish bilan birgalikda Davlat attetatsiya komissiyasiga taqdim etiladi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbarlik qilish

Malakaviy ishlarga rahbarlar ushbu oliy o'quv yurtining professor va dotsentlar yoki ilmiy xodimlari boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari safidan tayinlanadi.

Malakaviy ish rahbari:

- topshiriq beradi;
- malakaviy ishning bajarilish jadvalini rejalashtiradi;
- asosiy adabiyotlar, ma'lumot va arxiv materiallarini hamda mavzu bo'yicha boshqa manbalarni tavsiya etadi;
- talabalar bilan muntazam ravishda konsultatsiyalar o'tkazadi;
- malakaviy ishning bajarilish jarayonini nazorat etadi.
- talaba bajargan malakaviy ishning sifati va muallifligiga javob beradi, mavzularning qaytarilishi yoki ko'chirilishiga yo'l qo'ymaydi.

Malakaviy ish rahbarining taklifiga binoan, kafedra malakaviy ish rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt budjeti hisobidan ishning ayrim bo'limlari bo'yicha konsultantlarni taklif etishi mumkin.

Malakaviy ishning bo'limlari bo'yicha konsultantlar tayin etib, oliy o'quv yurtlarining professorlari va dotsentlari, ilmiy xodimlari hamda boshqa muassasa va korxonalarining yuqori malakali mutaxassislari

tayinlanishi mumkin. Konsultantlar talaba bajargan ishning muvofiq qismini tekshiradilar.

Mutaxassis chiqaruvchi kafedra malakaviy ishga qo'yiladigan majburiy talablar hajmini belgilagan holda malakaviy ishni bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanmalarni ishlab chiqadi va talabalarni taminlaydi.

Malakaviy ish berilgan topshiriq asosida shaxsan talaba tomonidan bajariladi.

Malakaviy ishning har bir bo'limi muvofiq asoslar, qarorlar va xulosalar bilan yoritiladi. Malakaviy ishda, ilgari bajarilgan mustaqil ishlarning natijalari yoki boshqa mualliflarning (ilmiy ma'ruzalari va maqolalari, hisob-grafika ishlari, kurs ishlari va loyihalari, albatta, nomlari ko'rsatilgan holda) ishlari aks ettirilishi yoki ulardan foydalanish mumkin.

Tushuntirish qismi (poyasnitelnaya zapiska) malakaviy ishning mazmunini qisqa va muayyan shaklda ifodalashi lozim. Zaruriy hollarda tushuntirish qismiga grafiklar, rasmlar, eskizlar, diagrammalar, sxema va boshqalar, shuningdek, zaruriy axborot yozilgan disketlar ilova etilishi mumkin.

Tushuntirish qismi qo'lyozma shaklida rasmiylashtirilishi shart.

Tushuntirish qismi kamida 10-15 ming so'z hajmida belgilanadi.

Chizmalarining formati, shartli belgilari, shrift va masshtablari amaldagi talablarga qat'iy muvofiq kelishi zarur. Odatda, chizmalar A2 formatli qog'ozda (5-6 varaq hajmida) qalamda bajariladi yoki texnika vositalari orqali ekranda ko'rsatiladi. Arxitektura yo'nalishidagi chizmalarga qo'yiladigan talablar muvofiq o'quv-uslubiy birlashmalar (assotsiatsiyalar) tomonidan belgilanadi.

Kafedraning tavsiyasiga binoan malakaviy ish chet tillarning birida bajarilishi mumkin. Chet tilda bajarilgan ishga davlat tilidagi annotatsiya ilova etiladi va himoya vaqtida tarjima taminlanadi.

Bitiruv malakaviy ishining bajarilishi

Malakaviy ish oliy o'quv yurtining, odatda, ushbu maqsadda maxsus ajratilgan xonalarida bajariladi. Ayrim hollarda, malakaviy ish korxonalar, muassasalar, ilmiy, loyihalash va boshqa muassasalarda bajarilishi mumkin.

Malakaviy ishning bajarilishi bo'yicha talabanning hisobot berish muddatlarini dekanat nazorat etadi. Dekanat belgilagan muddatlarda, talaba malakaviy ishning bajarilishi haqida rahbar va kafedra mudiri oldida hisobot beradi. Kafedra mudiri malakaviy ishning tayyorlik holatini belgilaydi.

Talaba – ish muallifi, tanlangan qarorning to'g'riligiga va uning topshiriqqa muvofiqligiga, malakaviy ishda ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beradi.

Bitiruv malakaviy ishini himoya etish

Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan malakaviy ish talaba tomonidan rahbarga taqdim etiladi. Rahbar, malakaviy ish talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi bilan birga kafedra mudiriga taqdim etadi. Taqrizda talabanning faolligi, qaror qilingan qarorlardagi yangiliklar va malakaviy ishning boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Kafedra mudiri, taqdim etilgan materiallar asosida, malakaviy ishni talaba tomonidan DAKda himoya qilishga kiritish haqida qaror qabul qiladi. Agar kafedra mudiri talabanning malakaviy ishini himoyaga kiritish mumkin emas deb hisoblasa, masala kafedra yig'ilishida rahbar ishtirokida muhokama etiladi. Kafedra majlisining bayonnomasi fakultet dekani tomonidan tasdiq uchun rektorga taqdim etiladi.

Taqrizchilar tarkibi bitiruvchilarni iste'mol qiluvchi soha mutaxassislari safidan tanlanadi. Taqrizchilarga oliy o'quv yurtlarining professor va o'qituvchilari ham jalb etilishi mumkin.

Fakultet dekani malakaviy ishni taqriz bilan himoya uchun DAKka yuboradi.

Bitiruv malakaviy ishni himoya qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risidagi Nizomda belgilanadi.

BMI himoyasi zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida taqdimot (presentatsiya) shaklida tashkil etiladi va o'tkaziladi.

Arxiv, ARM va kafedralarda saqlanayotgan yoki internet resurslaridan foqdalanib aynan ko'chirib olinganligi rasmiy himoyagacha aniqlanib tasdig'ini topgan bitiruv malakaviy ishlari kafedra mudiri taqdimnomasiga asosan rector buyrug'I bilan bekor qilinadi va bitiruvchiga qoniqarsiz baho qo'yilib, ish rahbari keyingi 3 yil davomida BMI ga rahbar etib tayinlanmaydi.

OTM da axborot texnologiyalari vositasida taqdimot shaklida BMI himoyasini tashkil etish uchun yetarli darajada maxsus jihozlangan auditoriyalar belgilanadi.

Malakaviy ish himoyasidan so'ng (kamida 10 yil) oliy o'quv yurtida saqlanadi. Har xil masala bo'yicha bitiruv malakaviy ishni boshqalarga topshirish zaruriyati mavjud bo'lgan holda (tadbiq etish, tanlovlar va h.) ishdan nusxa olinadi (ishning asl nusxasi oliy o'quv yurtida qoldiriladi).

Bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbarning yozma xulosasi hamda ichki va tashqi taqrizchidan taqriz olinadi. Ilmiy rahbarning ish haqidagi xulosasida quyidagi masalalar yoritilishi shart:

1. BMI mavzusining dolzarbligi;
2. BMIning maqsad va vazifalari talaba tomonidan qay darajada yoritilganligi;
3. BMI mavzusidagi ilmiy yangiliklar;
4. Tadqiqot natijalarining qay darajada asoslanganligi;
5. Talabanning BMI yozishdagi shaxsiy mahorati;

6. BMI dan chiqarilgan xulosalarning nazariy-amaliy ahamiyati;
7. Ishning BMI larga qo'yiladigan talablarga moslik darajasi;
8. BMI mavzusining amaliyot bilan aloqasi va bog'liqligi.
BMI ga berilgan ichki va tashqi taqrizlarda quyidagi masalalar yoritilishi zarur:

1. BMI mavzusining dolzarbligi;
2. Tadqiqotning yangiligi;
3. Ishdagi ilmiy-amaliy natijalarning qay darajada asoslab berilganligi;
4. BMI ning amaliyot uchun ahamiyati;
5. BMI mazmuni va uning tugallanganlik darajasi;
6. Materialni bayon etish tili va uslubi;
7. BMI ning ilmiy-nazariy qiymati;
8. Ishning BMI larga qo'yiladigan talablarga moslik darajasi;
9. BMI ni yozishda talabaning masalaga mustaqil yondashganligi va turli ilmiy-nazariy fikrlarga shaxsiy munosabati.

Bitiruv malakaviy ishi va uning mazmuni

BMI ni yozish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- mavzuni to'g'ri tanlay olish;
- mavzuga oid adabiyotlarni o'rganib chiqish;
- mavzu bo'yicha faktik materiallar yig'ish;
- u yoki bu holatlarning ilmiy va amaliy ahamiyati hamda qiymatini asoslab berish, xulosalar chiqarish.

Ilmiy tadqiqot voqelikdagi biror narsa-hodisa haqida uning bevosita kuzatishda berilgan, xususiyliklarini kuzatish asosida narsa-hodisaning mavjudlik, yashash va rivojlanish qonuniyatlari haqida umumlashma hosil qilish jarayoni bo'lib, u ijtimoiy, sof insoniy, aqliy faoliyatdir. Shuning uchun ilmiy tadqiqot, bir tomondan, obyektiv, ya'ni tadqiqotchidan tashqarida turgan, unga bog'liq

6. BMI dan chiqarilgan xulosalarning nazariy-amaliy ahamiyati;
 7. Ishning BMI larga qo'yiladigan talablarga moslik darajasi;
 8. BMI mavzusining amaliyot bilan aloqasi va bog'liqligi.
- BMI ga berilgan ichki va tashqi taqrizlarda quyidagi masalalar

yoritilishi zarur:

1. BMI mavzusining dolzarbligi;
2. Tadqiqotning yangiligi;
3. Ishdagi ilmiy-amaliy natijalarning qay darajada asoslab berilganligi;
4. BMI ning amaliyot uchun ahamiyati;
5. BMI mazmuni va uning tugallanganlik darajasi;
6. Materialni bayon etish tili va uslubi;
7. BMI ning ilmiy-nazariy qiymati;
8. Ishning BMI larga qo'yiladigan talablarga moslik darajasi;
9. BMI ni yozishda talabaning masalaga mustaqil yondasha olganligi va turli ilmiy-nazariy fikrlarga shaxsiy munosabati.

Bitiruv malakaviy ishi va uning mazmuni

BMI ni yozish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- mavzuni to'g'ri tanlay olish;
- mavzuga oid adabiyotlarni o'rganib chiqish;
- mavzu bo'yicha faktik materiallar yig'ish;
- u yoki bu holatlarning ilmiy va amaliy ahamiyati hamda qiymatini asoslab berish, xulosalar chiqarish.

Ilmiy tadqiqot voqelikdagi biror narsa-hodisa haqida uning bevosita kuzatishda berilgan, xususiyliklarini kuzatish asosida narsa-hodisaning mavjudlik, yashash va rivojlanish qonuniyatlari haqida umumlashma hosil qilish jarayoni bo'lib, u ijtimoiy, sof insoniy, aqliy faoliyatdir. Shuning uchun ilmiy tadqiqot, bir tomondan, obyektiv, ya'ni tadqiqotchidan tashqarida turgan, unga bog'liq

bo'lmagan haqqoniy (real) borliq bilan, ikkinchi tomondan esa, shu borliqning shaxs (subyekt, tadqiqotchi) ongida in'ikosi bilan bog'liq bo'lgan subyektivlikka aloqador murakkab jarayondir. Uning shaxs bilan, subyektivlik bilan bog'liqligi Sharqu g'arbda mashhur juda qadimgi hikmatli so'zda "Hamma qaraydi, lekin hamma ham ko'rolmaydi" matalida o'z aksini topgan, zero, "ko'ra olish" maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan, o'ziga xos tadqiq qurollari bilan qurollangan, ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lgan shaxslarga, mutaxassislarga xos harakatdir¹.

Ilmiy tadqiqning muhim tarkibiy qismlardan biri tadqiq manbai (o'rganish obyekti)dir. Tadqiq manbai deganda ilmiy tadqiqning voqelikda mavjud bo'lgan, o'rganilishi kerak bo'lgan narsa-hodisa, ularning orasidagi munosabat - aloqalar, qonuniyatlarning xilma-xil ko'rinishlarda, shakl va turlarda yuzaga chiqishi tushuniladi. Nimada biror narsa-hodisani tavsiflash, aniqlash, sharhlash, ochish ilmiy tadqiq oldida maqsad qilib qo'yilgan bo'lsa, o'sha narsa tadqiq manbaidir. Tilshunoslik fanining tadqiq manbai inson tili, fikrini shakllantirish va uni ifodalashning eng asosiy vositasidir.

Tadqiq manbaiga turlicha yondashish mumkinligi bois fanda ayni bir tadqiq manbai turli jihatlardan va turli mufassallikda qayta-qayta o'rganilishi lozim va bu tadqiq mavzusida o'z aksini topishi zarur.

Ilmiy tadqiq mavzusi (odatda, ilmiy ishning sarlavhasi) tadqiq manbayiga va tadqiq predmetiga ishorani o'z ichiga oladi.

Ilmiy tadqiq mavzusi, odatda, ilmiy tadqiqotning sarlavhasidir.

Sarlavha qanchalik qisqa, ixcham va sermazmun bo'lsa, shuncha yaxshi. Chunki sarlavha qanchalik qisqa, aniq va mazmundor bo'lsa, ilmiy tadqiqotning shunchalik uqilgan va yetilganligiga ishora qilib turadi. Aksincha uzundan-uzoq sarlavha noqulay va ishning g'o'rliigi

¹ Неематов Х. Лингвистик тадқиқ методикаси ва методологияси. –Бухоро, 2006.

nishonalaridan biridir. Sarlavhada ortiqcha soʻzlar boʻlmasligi kerak.² Mavzuning ixcham va aniqligi uning toʻliq uqilganligining nishonasidir.

Tadqiqot mavzusining oʻrganilish tarixi deganda tanlangan mavzu fanda kimlar tomonidan qay darajada oʻrganilganligi tushuniladi. Tadqiqotchi mavzuning oʻrganilish tarixini, yaʼni undan oldin shu masala boʻyicha kimlar nimalar qilganligini, qanday yutuqlarni qoʻlga kiritganlarini, qaysi muammolarni oʻrtaga qoʻyganliklarini tugal bilmogʻi lozim. Busiz tadqiqotchi ilmiy tadqiq ishiga kirishishi, hatto sarlavha belgilashi va asoslashi mumkin emas. Oʻrganayotgan (mutolaa qilayotgan) ilmiy-tadqiqiy asarlardagi ilmiy havolalar tadqiqotchiga yangi-yangi tadqiqotlarni topish va oʻrganish uchun yoʻllanmadir.

Adabiyotlar bilan ishlash

Iqtibos (arab. – ziyo olmoq), sitata – biror asardan soʻzma-soʻz olingan parcha, koʻchirma. Iqtibos adabiyotlarda sitata, havola, koʻchirma kabi nomlar bilan yuritiladi.

Iqtibos bayon qilinayotgan fikrni ishonchli fikr bilan quvvatlash, muayyan fikrni tanqid qilish uchun hamda muhim faktik material – misol sifatida qoʻllanadi. Iqtibos, asosan, ilmiy (koʻpincha gumanitar) va rasmiy nutqda ishlatiladi hamda qoʻshtirnoq bilan belgilanadi yoki alohida harf bilan yoziladi; shuningdek, manbaga havola qilinadi. Bunday koʻchirmalar foydalanuvchining fikri bilan qiyoslaganda uning mohiyatini toʻgʻri tushunish imkonini beradi. Masalan, badiiy adabiyotning, soʻzning gʻoyaviy-estetik taʼsir kuchi, ahamiyatini quroldan ham kuchliroq ekanligi toʻgʻrisidagi fikrni mustahkamlash masalasida P.Tursunning “Adabiyot zambarakdan zoʻr” yoki A.Qahhorning “Adabiyot atomdan kuchli” degan soʻzlarini yoki

² Незматов Х. Лингвистик тадқиқ методикаси ва методологияси. –Бухоро, 2006.

materiallariga tayanib ishlayotganligini bilish uchun kitobxon bob (ish) oxiriga qayta-qayta murojaat etishi zarur. Ikkinchidan, bunday tizimdan foydalanish muallifdan katta ehtiyotkorlikni talab qiladi. Zeroki, bitta raqamdagi xato manbani tamoman o'zgartirib yuboradi. Ilmiy ishda esa bu nafaqat qo'pol xato, balki salaflarga hurmatsizlik deb ham sanaladi.

Havolalarni uchinchi usulda (asar muallifi va uning bosilgan yiliga ishora etuvchi qisqartma bilan berish yo'li) ilmiy ishlarda eng qulay va tejamkordir. Bu usuldan havola berishning to'rtala turida ham bimalol foydalanish mumkin. Bu usuldan foydalanganda manbalarning shartli qisqartmalari yo ishning boshida - shartli qisqartmalar bo'limida, yoki ishning oxirida "Foydalanilgan adabiyotlar va ularning qisqartmalari" qismida to'liq ochib boriladi. Bunday qism ilmiy tadqiqotda, xususan, dissertatsiyalarda "Adabiyotlar ro'yxati" zaruriy qismi o'rnini ham bosadi.

Hozirda BMIlarda havola berishning birinchi usulidan – muallif, asari, nashriyoti, yili, zarur betlarini to'liq ko'rsatgan holda sahifaosti izohlarda berish tavsiya etiladi.

Masalan: O'zbek tilshunosligida bevosita ilova konstruksiyalarni o'rganishga bag'ishlangan dastlabki ish sifatida F.Ishoqovning maqolasini tilga olish mumkin.⁵

Ilmiy ishda havolalar quyidagi hollarda beriladi:

1. Biror tadqiqotchi (muallif)ning asaridan, ma'ruzasidan ma'lum bir fikr, izoh yoki ma'lumot aynan keltirilganda. Bunda bu olinma ko'chirma gap sifatida imlo qoidalariga mos ravishda berilgani ma'qul va oxirida olinma manbayi ko'rsatilishi shart. Bunday olinma bitta atama, bir-ikki so'z birikmasi yoki gap hajmida ham, katta (ba'zan bir-bir yarim bet) band (yoki abzaslar)dan iborat bo'lishi ham mumkin. Bunday olinmalarda tadqiqotchi olinmaning ma'lum bir

⁵ Ishoqov F. Hozirgi zamon o'zbek tilida ilovall konstruksiyalar.FF Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari. 2-kitob. – Toshkent: O'zFA, 1961. –B. 285–294.

qismini tushirib qoldirsa, o'sha o'rin ko'p nuqta (...) bilan belgilanadi; bir qismini alohida bo'rttirib (kursiv, ajratilgan harflar ostiga chizish v.h. usullarda) ajratsa olinma ichidagi izohda ko'rsatilishi lozim.

2. Tadqiqotchi o'z fikrini bayon qilayotganda boshqa tadqiqotchilarning ismi shariflarini tilga olib, ularning materiallariga tayanib tahlil olib borayotganligini eslatganda ham manbalarga havola berishi zarur.

3. Tadqiqotchi biror hodisa (voqea) tavsifini berayotganda o'zgalarning ishlaridan olgan (o'zlashtirgan) ma'lumotlarni alohida ta'kid bilan ajratmay, o'z nutqiga singdirib borgan hollarda o'zlashtirilgan ma'lumot manbayi shu ma'lumotdan keyin ko'rsatilishi zarur.

Shuni esda tutish lozimki, boshqa tadqiqotchilar ma'lumot va taqinlaridan foydalanib, uni ilmiy ishda ko'rsatmaslik eng xunuk amaldir. Ilmiy ishda bunday o'rinlar bo'lsa, (yoki atigi bir abzaslik material birovdan olinib, manbayi ko'rsatilmagan bo'lsa) bu ish plagiat - ilmiy o'g'rilik mahsuli sanalib, xalqaro qonunchilikda o'z aksini topgan mualliflik huquqi qoidalari asosida bekor qilinadi.

Havolalar berilmagan yoki juda kam berilgan bitiruv malakaviy ishlari talabaning mavzuga doir adabiyotlar bilan tanishmaganligi yoki kam tanishganligini ko'rsatib turadi

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy qismi

Bitiruv malakaviy ishi tarkibi, odatda, quyidagi qismlarning bosqichlilik bilan joylashtirilishidan tashkil topadi.

1. Titul varaq (sarvaraq)
2. Mundarija
3. BMIning umumiy tavsifi
4. Asosiy tadqiqiy boblar (uch bob shaklida)

5. Umumiy xulosalar

6. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

7. Ilovalar.

Bitiruv malakaviy ishi sarvarag'ining tarkibiy qismlari quyidagilar:

- BMI bajarilgan oliy ta'lim muassasasi, fakulteti, yo'nalishi.
- Fakultet dekanining ishni himoyaga tavsiya etish bo'yicha imzosi, uning sanasi.
- Talabaning ismi sharifi, guruhi, kursi.
- BMIning mavzusi.
- Ilmiy rahbar ismi sharifi, kafedrası, ilmiy unvoni va darajasi.
- Taqrizchilar (ichki va tashqi) ismi sharifi, ish joyi, ilmiy unvoni va darajasi.
- Kafedra mudirining ishni himoyaga tavsiya etish bo'yicha imzosi, uning sanasi.
- Ish bajarilgan shahar nomi va yili. (Titul varag'ining namunasi 1-ilovada keltirilgan)

Mundarijadan keyin agar ilmiy tadqiq matnida shartli qisqartmalar berilgan bo'lsa, alohida sarlavha ostida har bir qisqartma to'liq sharhlanishi lozim. Shartli qisqartmalarni joylashtirishda, odatda, alifbo tartibiga rioya qilinadi. Shartli qisqartma izohi aniq va tushunarli bo'lishi kerak. Zarur bo'lganda shartli qisqartma izohida shu tushuncha mufassal sharhlangan va tadqiqotchi tomonidan akseomatik (isbotsiz) qabul qilingan manba ko'rsatilishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotning Mundarijasi ishning tarkibida bo'lgan qismlarni, har bir qismning boshlanish betini aniq ko'rsatishi lozim. Mundarija ikki xil – ixcham va mufassal shaklda tuziladi. Masalan:

**Mavzu: O'zbek tilida bog'langan qo'shma gaplarning struktural-
pozitsion xususiyatlari**

Mundarija

Kirish. BMning umumiy tavsifi

I bob. Bog'langan qo'shma gaplarning sintaktik xususiyatlari

1.1. Bog'langan qo'shma gaplarni biriktiruvchi vositalar

1.2. Bolangan qo'shma gaplarning pozitsion xususiyatlari

II bob. Bog'langan qo'shma gaplarning semantik xususiyatlari

2.1. Bog'langan qo'shma gaplarda payt munosabati

2.2. Bog'langan qo'shma gaplarda shartlanganlik munosabati

III bob. BMning amaliyotga tatbiqi

3.1. Ta'lim bosqichlari dastur va darsliklarida "Bog'langan qo'shma gap"
mavzusining berilishi

3.2. Ochiq dars ishlanmasi

3.3. Olingan natijalar

Xulosa


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Mufassal mundarijada har bir tarkibiy qismning ichki band va bo'limlari, ularning boshlanish sahifalari ko'rsatiladi. Bunday mundarijada, odatda, asosiy tarkibiy qism va bo'limlari bir-biridan texnik vositalar (harflarning katta-kichikligi, ularning bosma yozma (kursiv) ligi v.h) bilan ajratiladi.

Har bir bitiruv malakaviy ishida ishning umumiy tavsifi berilishi va unda quyidagi masalalar qisqa va sarmazmun yoritilishi zarur.

-tadqiqot mavzusining o'rganilish darajasi va dolzarbligi;

-tadqiqot obyekti;



- tadqiqot predmeti;
- tadqiqot materiali;
- tadqiqotning maqsad va vazifalari;
- tadqiqotning metodologik asosi va unda qo'llanilgan tadqiqot metodlari (usullari) bayoni;
- tadqiqotning ilmiy yangiligi;
- tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarining qo'llanilish sohalari va iqtisodiy-ijtimoiy samarasi;
- ishning sinalishi, natijalarining ommalashtirilishi;
- ishning tuzilishi va tarkibi.

Tadqiqotda ajratiladigan har bir qism, fasl, bob, bo'lim, band nisbiy mustaqillik va tugallikka ega bo'lishi, o'ziga xos kichik kirish, tadqiqot tavsifi (bayon) va xulosa kabi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi va, albatta, o'zidan oldingi va keyingisi bilan uzviy bog'lanishi zarur.

Bitiruv malakaviy ishlarining 3-bobi qat'iy ravishda "Ishning amaliyotga tatbiqi" haqida bo'lishi zarur. Bunda mavzuning o'rta umumta'lim hamda o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi bosqichlarida berilishi, ularning o'zaro farqli jihatlari, uzviylik darajasi, mavzuni o'tishda qo'llanadigan yangi pedagogik va interaktiv metodlar, bir soatlik dars ishlanmasi kabilar yoritiladi. Quyida ergashgan qo'shma gaplar mavzusiga doir BMLning amaliyotga tatbiqi bo'yicha qisqa namuna keltiramiz.

III bob. Mavzuning amaliyotga tatbiqi

3.1. Ergashgan qo'shma gaplar masalasining akademik litsey va kasb-hunar kollejlari darsliklarida berilishi

O'rta maxsus ta'lim bosqichida esa bu masala akademik litseyning 3-bosqichida o'rgatiladi. Darslik: A.Nurmonov va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv muassasalari uchun darslik. -T.: Ilm-ziyo. 2010.

Akadémik litseylarning 3-kursi uchun chiqarilgan A.Nurmonov va boshqalarning “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv muassasalari uchun darsligida bu masala quyi bosqichdan ko‘ra birmuncha torroq beriladi. Bunday bo‘lishi tabiiy, chunki talabalar quyi bosqichda ergashgan qo‘shma gapning mohiyati, birikish usullari, ergash gap va bosh gapni farqlash kabi masalalar bilan atroflicha tanishishgan. Bu bosqichdagi mavzularning mazmun-mundarijasi:

1. Qo‘shma gap qismlarini bog‘lovchi vositalar va qo‘shma gap turlari.
2. Qismlari ohang yordamida bog‘langan qo‘shma gaplar.
3. Ergashtiruvchi bog‘lovchili qo‘shma gaplar va ularning tasnifi.
4. Havola bo‘lakli qo‘shma gaplar va ularning tasnifi.
5. Havola bo‘lakli qo‘shma gaplar bilan sodda gaplar sinonimiyasi.

3.2. Ergashgan qo‘shma gap mavzusining o‘rta umumta’lim darsliklarida berilishi

O‘rta umumta’lim maktablarida ergashgan qo‘shma gaplar masalasi 9-sinfda o‘rgatiladi. Manba: N.Mahmudov va boshq. Ona tili. Umumta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. - T.: Tasvir, 2010. Ergashgan qo‘shma gaplar masalasini uzviylik tamoyillari asosida ko‘rib chiqamiz. 9-sinfda ergashgan qo‘shma gaplar quyidagi mavzular doirasida beriladi:

1. Ergashgan qo‘shma gap haqida ma’lumot.
2. Bosh va ergash gap.
3. Ergash gapni bosh gapga bog‘lovchi vositalar.
4. Ergashtiruvchi bog‘lovchili ergashgan qo‘shma gaplar.
5. Ko‘makchili qurilmalar yordamida ergashgan qo‘shma gaplar.
6. Deb so‘zi yordamida ergashgan qo‘shma gaplar.
7. Shart mayli vositasida ergashgan qo‘shma gaplar.
8. Ko‘rsatish olmoshili ergashgan qo‘shma gaplar.
9. Nisbiy so‘zli ergashgan qo‘shma gaplar.
10. Ergashgan qo‘shma gaplarning sodda gaplar bilan ma’nodoshligi.

11. Kesim ergash gapli qo'shma gaplar.
12. Ega ergash gapli qo'shma gaplar.
13. Hol ergash gapli qo'shma gaplar.
14. To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar.
15. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar.

Ko'rinadiki, ergashgan qo'shma gaplarning tasnifi masalasida ham munozarali jihatlar ko'zga tashlanadi. 9-sinfda olmoshlar vositasida birikuvchi ergashgan qo'shma gaplar "Ko'rsatish olmoshili ergashgan qo'shma gaplar" va "Nisbiy so'zli ergashgan qo'shma gaplar" atamaları bilan berilsa, litsey bosqichida bu tur "Havola bo'lakli ergashgan qo'shma gaplar" degan bitta nom ostida beriladi. Vaholanki, quyi bosqichda bu tasnif uchramagani, havola bo'lakning xususiyati haqida ma'lumot berilmagani holda, birdaniga ergashgan qo'shma gaplarning bir turi sifatida beriladi va tabiiy holda talabani chalg'itadi.

Shuning uchun vositasi xususida ham ta'lim bosqichlarida farqli ma'lumotlar berilgan. 9-sinf darsligida shuning uchun vositasida birikkan ergashgan qo'shma gaplar "Ko'makhili qurilmalar yordamida birikkan ergashgan qo'shma gaplar" nomi ostida berilsa, litseyning yuqorida nomi keltirilgan darsligida shuning uchun vositasi ergashtiruvchi bog'lovchi sifatida beriladi va ushbu vosita bilan hosil bo'lgan ergashgan qo'shma gaplar esa "Ergashtiruvchi bog'lovchili ergashgan qo'shma gaplar" sifatida beriladi.

Tadqiqot matnida chizma, jadval, rasm va boshqa tarzdagi ko'rgazmalilik (illustrativ material) bo'lsa, ular albatta raqamlanishi bu raqamlanishda jadval (chizma)ning qaysi qism-fasl-bob-bo'lim-bandga aloqadorligi, har biri sarlavhalanishi zarur. Bunday material tadqiqot matni ichida - qo'llanilgan, tahlil etilgan joyda yoki ish, bob, bo'lim, band oxirida alohida berilishi mumkin. Ular alohida berilganda jadval(chizma, rasm) eslatilgan joyda raqam va sarlavhasi, illustratsiyaning ozi berilganda esa ost qismida ishning shu jadval eslatilgan, tahlil etilgan beti ko'rsatiladi. Har ikkala holatda ham matn ichida uning o'rni ko'rsatilishi shart.

Ilmiy tadqiqotning ilova qismida bu tadqiqotni yaxshiroq tushunish, zarur bo'lganda uni chuqurlashtirishga imkoniyat beradigan ma'lumotlar va materiallar, fikrlarni tasdiqlovchi yoki oydinlashtiruvchi hujjatlar, rasmlar, har xil ko'rsatkichlar, asarlardan parcha va namunalari beriladi.

Ilova materiallari bitiruv malakaviy ishlarining belgilangan sahifa miqdoriga kirmaydi, lekin sahifa raqamlari uzluksiz qo'yiladi.

Ilovalarning har biri o'z mavzusiga ega bo'ladi va o'ng tomonning yuqorisida *Ilova* degan yozuv qayd qilinadi. Agar ilovalar bir nechta bo'lsa, ular "1-ilova", "2-ilova" tarzida rasmiylashtiriladi.

Ilmiy tadqiqot ilovalari berilgach, yakunlangan sanaladi. U qayta tahrir etilishi zarur.

Bitiruv malakaviy ishida qisqartmalar

Tadqiqotda juda ko'p hollarda ayni bir manbani (ilmiy adabiyotni, tajriba-sinov ishlari natijalarini, ayrim tushuncha va atamalarni, hatto ta'rif va qonuniyatlarni) juda ko'p marotaba, tez-tez takrorlab turishga to'g'ri keladi. Chunonchi, "Abdulla Qodiriy asarlarida eskirgan so'zlar" mavzusidagi ilmiy tadqiqotda tadqiqotchi bu adibning "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Obid ketmon", "Juvonboz" kabi asarlarini o'nlab marotaba tilga olishi, har bir fikrni asoslash uchun bu asarlardan yuzlab misollar keltirishi lozim. Bundan tashqari, tadqiqotchi eskirgan so'zlar muammosini anchagina mufassal tahlil etgan, masalan, Ernest Begmatovning "O'zbek tilida leksik qatlamlar", E.Qilichevning "Badiiy tasvirning leksik vositalari" asarlari, Sh.Rahmatullaevning "ToshDU Ilmiy asarlari. Yangi sira. 211-chiqishi. Filologiya. 24-kitob. Toshkent, 1963" to'plamida chiqqan "Arxaizm va istorizm" maqolasini, har xil lug'atlarni - ikki jildidan iborat bo'lgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni, 4 jildli "Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati" va h.larni tez-tez takrorlab turishi

lozim. Ilmiy ishda, ixchamlik va tejamkorlik nuqtayi nazaridan, unda tez-tez takrorlanib turuvchi manba va tushunchalarni tadqiqotchi, odatda, qisqartmalar (shartli qisqartmalar) bilan beradi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlarda juda ko'p hollarda chizmalar, diagrammalar, qonuniyatlarni ixcham va yorqin aks ettiruvchi formulalar, jadvallar keng qo'llaniladi. Ularda ham, asosan, har xil shartli qisqartmalar qo'llaniladi.

Ilmiy ishda foydalanilgan, keltirilgan barcha manbalar, ilmiy adabiyotlar ishning "Foydalanilgan manbalar (adabiyotlar)" yoki "Bibliografiya" qismida to'la keltiriladi. Bu qism ikki turda tuzilishi mumkin:

1. Faktik material manbalari va ilmiy adabiyotlar (manbalar) ro'yxati alohida ajratib beriladi.

2. Har ikkala manba birgalikda beriladi.

Har ikkala holatda ham manbalar alifbo tartibiga qat'iy rioya qilingan holda ro'yxatlashtiriladi. Manbaning ro'yxatdagi o'рни manba (asar) muallifining (mualliflar ko'p bo'lsa, birinchi muallifning) familiyasi, agar mabodo mualliflar ko'satilmagan bo'lsa, asar (to'plam, kitob v.h.) nomining birinchi so'zi harflari asosida joylashtiriladi. Bibliografik materialni (manbalar ro'yxatini) berishning kutubxonachilik va OAK, matbuot va poligrafiya boshqarmalari tomonidan qat'iy belgilangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan qonun-qoidalari bor. Har bir tadqiqotchi ularga rioya qilishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishini xulosalash

Ilmiy tadqiqning **farazi** mavzuning o'rganilish tarixidan kelib chiqadi, zeroki, har bir tadqiqotchi o'z tadqiq manbayi xususiyatlarini o'rganar ekan, uning yangi-yangi aloqa va munosabatlarini, tomon va qirralarini ochadi, yangi bog'lanishlarni,

muammolarini kashf etadi, lekin ularning barchasini o'z ilmiy ishida mufassal ko'rib o'tolmaydi, ammo bu yangi qirra va aloqadorliklar haqida yo'l-yo'lakay fikrlar, farazlar va taxminlar bildirib o'tadi. Mana shunday tadqiqotlar tadqiq manbaini yangi bosqichda o'rganish uchun mayoq - ilmiy faraz bo'lib xizmat qiladi. Har bir jiddiy va tom ma'noda ilmiy izlanish fan oldiga yangi-yangi muammolarni, maxsus o'rganilishi zarur masalalarni qo'yadi, tadqiq manbaini yangi bosqichda tahlil va tavsif etishga zamin hozirlaydi.

Ilmiy faraz tadqiqotchi tomonidan ehtiyotkorlik bilan asosli ravishda shakllantirilishi va bayon etilishi, atroflicha tekshirilib navbatdagi bosqich tadqiqotlari uchun mayoq qilib olinishi zarur.

Ilmiy tadqiqning muhim bosqich va qismlaridan yana biri faktik material yig'ish va tajriba-sinov (eksperiment) ishlari o'tkazishdir.

Faktik material deganda tadqiqotchidan tashqarida (unga bog'liq bo'lmagan) mavjudlik sifatida berilgan borliq (voqelik) narsa-hodisa, aloqa-munosabat, qonuniyatlar tushuniladi. Har bir fan uchun faktik material o'ziga xos. Chunonchi "Suv" kabi bir narsa (modda)ning tuproq, yer va o'simlikka ta'siri biologiya va qishloq xo'jaligi uchun faktik material bo'lsa, uning qancha darajada qaynashi yoki qotishi fizik uchun, qanday moddalar bilan aralasha olishi, reaksiyaga kirishi va kirmasligi ximiya uchun faktik materialdir. "Suv" so'zining xilma-xil ma'nolarni ifodalab kela olishi esa tilshunos uchun faktik materialdir.

Faktik material ilmiy tadqiq jarayonida kamida uch marta yig'iladi:

Ilk bosqichda faktik material, odatda, mavzuning o'rganilish tarixi bilan tanishish jarayonida ilmiy-tadqiqiy adabiyotlardan yig'iladi va bo'lajak ilmiy tadqiqning manbaini va predmetini, metodologik asoslarini belgilashda zamin vazifasini o'taydi.

Ikkinchi marta jiddiy va katta miqdorda faktik material mavzu rasmiylashtirilgach, uning o'rganilish tarixi bilan atroflicha

tanishilgandan keyin bo'lajak ilmiy tadqiqotning moddiy, ashyoviy asosi, qurilish materiali sifatida juda katta miqdorda yig'iladi.

Tilshunoslik bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda bu bosqich o'rganilayotgan til hodisasining qo'llanilish holatlarini (shevashunos bo'lsa, sheva xususiyatlarini, grammatikachi bo'lsa grammatik shakllarning, leksikolog bo'lsa, o'z tadqiq manbaiga oid so'zlarning, uslubshunos bo'lsa u yoki bu til birliklarining ma'lum bir maqsadlarini ko'zlab qo'llanilishlarini, biror yozma yodgorlikning lisoniy xususiyatlari tadqiqotchisi bo'lsa, shu yodgorlik yoki asarning til xususiyatlarini v.h.) qayd etib, kartochkalarga ko'chirish, har bir kartochkada hodisa to'g'risida o'z qaydlarini, hodisa olingan manbani aniq (kerak bo'lganda osongina topa oladigan shaklda) ko'rsatib berishdan iboratdir. Bunday izlanish - o'rganilayotgan birlik voqelanishining qayd qilish va yig'ib borish yangi voqelanishlar topish mumkin bo'lmagan, topilgan hodisalar oldin qayd etilganlarning faqat takroridan iborat bo'lguncha davom ettiriladi. Yig'ilgan material yuzlab kartochkalarni tashkil etishi mumkin. Shundan keyingina tadqiqotchi yiqqan faktik materialini sistemalashtirish, tartibga solish ustida ishlaydi. Bunda u kartochkalarni ularda qayd etilgan hodisalarning o'zaro o'xshash va farqliligiga ko'ra guruhlaydi, ularning sistematik katalogga o'xshash kataloglarini tuzadi. Bunda tabiiyki, bir-biriga yaqin hodisalar birin-ketin keladi, bir-biriga yaqin joylashgan guruhlarda o'zaro farq, asosan, miqdoriy, juz'iy bo'lsa, bir-biridan ancha uzoq turgan guruhlar orasida farq sifatiy bo'ladi. Sistemalashtirilgan material katalogi tadqiq manbaining tadqiqotchi topgan, qayd qilgan hodisalarining (voqelanishlarining) ilk tasnifidir. Bu amaliyotning mukammalligi ilmiy tadqiqotning muvaffaqiyatli yakunlanishi garovidir.

Sistematlashtirish yakunlangach, agar tadqiqot hodisalar (bilimlar) tavsifini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, sistematlashtirilgan faktik material batafsil tavsiflanadi.

Tavsiflash jarayonida hodisaning ayrim voqelanish turlariga material yetarli emasligi, hodisalar voqelanish zanjirida uzilish sezilishi mumkin. Bunday hollarda uchinchi marta endi - maqsadli ravishda faktik material yig'iladi.

Natijada tilning biror bo'g'ini birliklarning (tabiiy fanlarda ma'lum turdagi eksperimentlarning va ularning natijalarining) mufassal tavsifini beruvchi tavsifiy tadqiqot yuzaga keladi. Ilmiy tadqiqotda manba tavsifi yakunlangach, ilmiy ish xulosalanishi zarur.

Ilmiy xulosa ilmiy tadqiqning mag'zi, maqsadi va uning eng zaruriy qismidir. Ilmiy xulosa tadqiqotchi kuzatgan, tavsiflagan hodisa-narsa haqida uning o'zi shakllantirgan ilmiy tushunchadir. Ilmiy xulosa ixcham, tushunarli, aniq, tadqiqotchi bayon etgan tavsiflardan kelib chiqqan holda, sermazmun qonuniyat sifatida shakllantirilishi zarur.

Ilmiy xulosalar ilmiy tadqiqotlarda har xil bo'ladi. Tadqiqot tuzilishida (strukturasida) mavjud bo'lgan har bir band (paragraf), bo'lim, bob, albatta, o'z ilmiy xulosasi bilan yakunlanishi lozim. Bandlarning xulosalari bo'lim xulosasida, bo'limlarniki bob xulosalarida va nihoyat, boblarning xulosalari ishning umumiy xulosasida yakunlanishi lozim.

Xulosalar mana shu tarzda bosqichma-bosqich biri ikkinchisini to'ldirib kelgan taqdirdagina ilmiy tadqiqda yaxlitlik va izchillik saqlangan bo'ladi. Bunday izchil ilmiy xulosalar tizimiga ega bo'lmagan ish mukammal ilmiy tadqiq emas, balki tartibsiz hodisalar tavsifidir, xolos.

Shuning uchun ilmiy tadqiqotlarni o'qish (o'rganish), odatda, ishning Kirish va Xulosa qismlari bilan tanishishdan boshlanadi, zerk, hozir ko'rib o'tganimizdek, Kirish qismida tadqiqotchining ilk

tayanch nuqtalari, xulosasida esa ishning yakuni tavsiflanadi. Aytganimizdek, ikki nuqtadan faqat bitta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin - Kirish bilan Xulosa tadqiqotchi yo'lini belgilaydigan nuqtalardir va shu nuqtalar aniq bo'lsa, unda ishni tushunish va baholash oson ko'chadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati tuzish

Bibliografiya (yunoncha *Biblion* – kitob va ... *grafiya*) – matbuot hamda yozuv asarlari haqida axborot tayyorlash va berish hamda ularni ma'lum ijtimoiy maqsadlarda targ'ib qilish bilan shug'ullanadigan ilmiy va amaliy faoliyat sohasi. Bibliografiya mahsulotlari, nazariyasi, tarixi, faoliyatini tashkil etish va uslubiyati bilan shug'ullanadigan fan bibliografiya fani deb ataladi.

Bibliografiya tuzish qadimgi dunyoda paydo bo'lgan (jumladan miloddan avvalgi 3-asrda Aleksandriya kutubxonasida Kallimax rahbarligida tuzilgan bibliografiya jadval). "Bibliografiya" termini dastlab kitob ko'chirib yozishni anglatgan, vaqt o'tishi bilan (17-asr o'rtalarida) kitoblar bayonini bildirgan. Bibliografiya tarixi kitob bosish yuzaga kelishi bilan boshlandi. Bosma asarlarning barcha turlari, qo'lyozmalar, ijtimoiy ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan eng yangi qo'lyozmalar (dissertatsiyalar, saqlashga topshirilgan qo'lyozmalar) bibliografiyaning o'rganish sohasidir. Texnika taraqqiyoti, mikrofilm, ovoz yozish (gramplastinka) va boshqalarning paydo bo'lishi, matn yozishning o'zagarishi bibliografiya ko'lamini kengaytirmoqda. Bibliografiya taraqqiyotiga fan va madaniyat yutuqlari, jamiyatning qiroatxonlik talabining o'sishi katta ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida bibliografiya ham ilmiy, adabiy va texnik ijodiyotga, nashriyot va kutubxonashunoslikka, kitob savdosi, ta'lim va mustaqil ta'limga ta'sir ko'rsatadi. Bibliografiya bosma asarlarni aniqlash, saralash va izohlash bilan fan taraqqiyoti yutuqlarini jamlashga va keyingi taraqqiyotga zamin yaratadi, madaniyat rivojlanishiga ayrim shaxs, xalq yoki

mamlakatning qo'shgan hissasini o'zida aks ettiradi; masalani o'rganishga oid zarur tarixiy asarlarni ko'rsatadi. Kutubxonalarda to'plangan yoki yangi bosmadan chiqqan asarlarni targ'ib qilib, bibliografiya alohida ilmiy muhit, siyosiy, falsafiy va estetik qarashlarning tarqalishiga, shuningdek, texnikaviy malakaning oshishiga ta'sir etadi. Bibliografiya ilmiy va texnika xabarlarini bilan yaqin aloqada. Ulardan farqli o'laroq, balki ular haqidagi bosma asarlar to'g'risidagi ma'lumotlar berib, ilmiy xabar bilan birga ilmiy, ma'rifiy va tarbiyaviy vazifani bajaradi.

Ko'pgina mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham bosma asarning majburiy (kontrol) nusxasi joriy qilingan bo'lib, shu asosda bosma asarlarni hisobga olish, so'ng kitobxonlarga mo'ljallab saralash yo'lga qo'yilgan. Bosma asarlarni ularning ilmiy va g'oyaviy ahamiyati, shuningdek mazmunini yoritib guruhlariga ajratish muhim ahamiyatga ega. Bosma asarlar turlar (kitoblar, davriy nashrlar va b.), rasmiy belgilar (alfaviti, nashr joyi yoki sanasi), mazmuni (mavzu, fan va tarmoqlar) bo'yicha guruhlanadi. Bu bosma asarlarni guruhlariga ajratishning umumiy asosidir, bibliograflar har bir alohida hollarda o'zlarining tarmoqlar rejasini yaratadi. Bosma asarlarning tavsifnomasi muhim ahamiyatga ega. Uning asosiy qismi tasvirlash bo'lib, unga muallif familiyasi, asar sarlavhasi, sarlavhachasi, nashr joyi, nashriyot nomi, nashr vaqti (yili), hajmi (sahifa va bezaklar soni), zarur bo'lganda adadi, narxi va boshqalar haqidagi ma'lumotlar kiradi. Tasvirlash elementlari, odatda, o'rnatilgan qoidalar, shuningdek standartlar asosida belgilanadi. Bosma asarlar mazmuni tavsifnomasining asosiy shakllari – annotatsiya, referat, guruh axborot (obzor).

Ijtimoiy vazifasiga ko'ra, davlat bibliografiyasi, ilmiy yordamchi bibliografiyasi va tavsiya bibliografiyasiga; umumiy, soha va mazmunli bibliografiyaga bo'linadi. Bibliografiyaning alohida turini bibliografiya bibliografiyasi, biobibliografiya (shaxs bibliografiyasi) va

o'lkashunoslik bibliografiyasi tashkil etadi. Bu bo'linish nisbiydir. Nashr shakliga ko'ra, bibliografik qo'llanmalar, bibliografik jurnallar, byulleten, gazeta, kitob va maqolalar ko'rsatkichlari va adabiyotlar ro'yxati kabilar farqlanadi.

Turkistonda bibliografiya ishi 9-15 asrlardayoq rivojlana boshlagan. Fan va adabiyotimizning yirik vakillari (Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va b.)ning asarlari saroy kutubxonalari tomonidan o'z jang'armalarining bibliografik ro'yxati va ularni tavsif qilishishlari olib borilganligi haqida ma'lumotlar bor. Jumladan, Beruniy "Fihrist kutub Muhammad ibn Zakariyo ar-Riyoziy" ("Muhammad ibn Zakariyo ar-Riyoziy kitoblarining ro'yxati") nomli Muhammad ibn Zakariyo Roziy ijodiga oid bibliografiya tuzadi. Ko'rsatkichda Roziyning 184 asarini berish bilan birga Beruniyning 1036 yilgacha yozgan 113 asarining ro'yxati ham keltirilgan. Bibliografiya qo'llanmalari tuzish keyingi davrda ham davom etdi: Ibn Abdullahab Yoqutning "Ismlar lug'ati va fanlar mazmuni" (12 asr); Xoja Xalifaning "Kitob va fan nomlaridagi shubhaning bartaraf etilishi" (18 asr) va b.

XX asrning 20-30- yillarida bibliografiya ishiga jiddiy ahamiyat berila boshlandi va hozirgi kunda muhim davlat ishiga aylangan. 1926-yildan O'zbekiston Respublikasi Kitob palatasi, 1930- yildan Alisher Navoiy nomidagi davlat kutubxonasi bibliografiya bo'limining tashkil qilinishi o'zbek milliy bibliografiyasining rivojlanishiga zamin yaratdi. O'zbek tilida tuzilgan dastlabki ko'rsatkich S.Dolimov va F.Ubaydullayevning "Mukammal ilmiy bibliografiya" (1934) asari bo'lib, unda 3 ming kitobning tavsifi berilgan.

O'zbekiston Respublikasi milliy kitob palatasi respublika davlat bibliografiyasining asosiy markazidir. O'zbekiston Respublikasida bibliografiya ishi bilan O'zbekiston davlat kutubxonasi, O'zbekiston FA asosiy kutubxonasi va boshqa kutubxonalar ham shug'ullanadi. Bibliografiya ishiga oid ilmiy ishlar asosan Abdulla Qodiriy nomidagi

Toshkent davlat madaniyat institutining “Bibliografiya” kafedrasida olib boriladi.

BMIda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati 3 qismdan iborat bo'ladi:

1. Siyosiy adabiyotlar – ular alifbo tartibidan tashqarida, ro'yxatning boshida keltiriladi.

2. Ilmiy adabiyotlar – ular alifbo tartibida siyosiy adabiyotlardan keyin keltiriladi.

3. Internetga oid adabiyotlar foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatining oxirida keltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlarning yozilish namunalari:

1. Bir tomlik kitoblari, monografiyalar, darsliklar:

Abdurahmonov G'. Qo'shma gap sintaksisi. –Toshkent: O'qituvchi, 1964. –286 b.

Mahmudov N. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik – sintaktik asimmetriya. – Toshkent: O'qituvchi, 1984. –142 b.

Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. –Toshkent, 2008. – 178 b.

G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: O'qituvchi, 1965. – 342 b.

Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.

Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov., Solixo'jaeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. –Toshkent: Fan, 1992.

O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1978.

2. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari:

Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2009. – 314 b.

Abdullaeva D. O'zbek tilida antisemiya. Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2010. – 134 b.

Hakimova M. O'zbek tilida vaqt ma'noli lug'aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari. Filol.fan. nomz. ...avtoref. – Farg'ona, 2004. – 23 b.

3. Jurnallardagi maqolalarga havolalar:

Nurmonov A. Ko'p predikatli sodda gaplarda yarim predikatlik masalasi. // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1990. -№1. B.30-32.

Mahmudov N. Pressuppozitsiya va gap. // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1986. № 6. B.43-45.

4. Ilmiy ishlar to'plamlari va konferensiya materiallariga havolalar:

Butun manbaga havola:

O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, №3, 2009. – 175 b.

Izlanish: Ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent, 2010. – 95 b.

Ilmiy maqolaga havola:

Hojiev A. O'zbek tilshunosligida morfem paradigma masalasi // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, №3, 2009. –B. 3-8.

Mirzaev I. Lingvistik poetika va uning filologik tahlildagi o'rni. // Tilshunoslikning dolzarb masalalari. – Toshkent: Universitet, 2002. – B. 20-23.

5. Интернетдан олинган манбаларга ҳаволалар:

Спиноза Б. Избранные произведения. Том 2. – М.: Политическая литература, 1957. – С. 508. <http://www.koob.ru/books>

Ilmiy tadqiqot va uning turlari

Ilmiy tadqiqot – yangi bilimlarni ishlab chiqish jarayoni, bilish faoliyati turlaridan biri. Unga obyektivlik, ishonchlilik, aniqlik xos. Ilmiy tadqiqot hamma shartlarga amal qilib takrorlanganda hamisha birdek natija berilishi, bahs etilayotgan masalani isbotlashi shart. Ilmiy tadqiqotning asosiy komponentlari: mavzuni belgilash, mavjud axborotni, tadqiqot sohasida shart-shroit va metodlarni, ilmiy farazlarni oldindan tahlil qilish, tajriba o'tkazish, olingan natijalarni tahlil etish va umumlashtirish, kelib chiqqan farazlarni olingan dalillar asosida tekshirish, yangi fakt va qonunlarni ifodalab berish, ilmiy bashorat yuritish. Ilmiy tadqiqotlarni fundamental va amaliy, miqdoriy va sifatiy, noyob va kompleks tadqiqotlarga ajratish keng tarqalgan. Ilmiy tadqiqotlarning metod va tajribalari fanning o'zidagina emas, balki ko'pgina iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishda ham keng qo'llaniladi.

Ilmiy bashorat – tabiat va jamiyatning ayni paytda noma'lum, lekin kelajakda yuzaga chiqishi yoki o'rganilishi mumkin bo'lgan voqea va hodisalarni, jarayonlarni ilmiy qonuniyat asosida oldindan aytib berish, ko'ra olish. Ilmiy bashorat ijodiy jarayon bo'lib, tabiat, jamiyat taraqqiyotini obyektiv qonunlarining fanda o'rganilgan asarlariga suyanadi. Ilmiy bashorat voqelik haqida to'plangan bilim va tajribalarga, voqelikning o'zgarishi va rivojlanishi qonuniyatlariga tayangan holda chiqariladigan, ilmiy jihatdan asoslangan xulosalardir. Bunda voqelikdagi zaruriy aloqadorlik, davriy o'zgarishlar, hamda tasodifiy ehtimollar hisobga olinadi. Olimlar osmon harakatlarining davriy harakatlarini o'lchash natijasida Quyosh va Oyning tutilish vaqtini oldindan aytishgan, sayyoralarning harakatlanish jadvalini tuzishgan

(mil. av. 585-y. yunon olimi Fales Quyosh tutilishini bashorat qildi. Ulug'bek tuzgan yulduzlar jadvali esa osmon yoritqichlarining davriy harakatini aniq aks ettirdi). Tabiatdagi davriy o'zgarishlarni kuzatish natijasida yil fasllarining almashinishi, shamolning yo'nalishi va bulutlarning holatiga qarab ob-havoning o'zgarishini oldindan ayta olishgan, bunday bilimlar dehqonchilik va chorvachilikda muhim ahamiyat kasb etgan. Bashorat qilishning ayrim elementlari jonivorlarda ham uchraydi. Qushlar, ba'zi hasharotlar ob-havoning o'zgarishini oldindan payqar ekan.

Ilmiy bashorat o'z mohiyatiga ko'ra, bir qancha turlarga bo'linadi. Bularga dinamik va statik qonuniyatlarga tayanib aytiladigan ilmiy bashoratlarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Quyosh va Oy tutilishlarini oldindan aytib berish dinamik qonuniyatlarga tayanib aytiladigan ilmiy bashorat bo'lsa, meteorologik hodisalarni yoki demografik jarayonlarni prognozlash ilmiy bashorat qilishning 2-turiga kiradi. Ijtimoiy hodisalarning rivojlanish qonuniyatlariga tayanib jamiyat taraqqiyotining kelajagini bashorat qilish ilmiy bashoratning 3-turidir. Ijtimoiy ilmiy bashoratni, o'z navbatida, iqtisodiy, demografik, siyosiy va boshqa turlarga ajratish mumkin. Ilmiy bashorat voqelikni, uning kelajagini oldindan bilib olishga imkon beradigan murakkab ilmiy bilish shakli hisoblanadi. Ilmiy bashoratning to'g'riligi uni ilgari surishda tayaniladigan bilimlarning puxtaligiga, ko'lamiga, aniqligiga, haqqoniyligiga bog'liq.

Ilmiy bashorat payg'ambarlar va avliyolarning karomatlari, folbinlik yoki astrologik usulda kelajakni bashorat qilishdan farqlanadi.

Ilmiy tadqiqot turlariga referat, kurs ishi, kurs loyihasi, BMI va dissertatsiya kabilar kiradi.

Referat (lot. refero – axborot beryapman) – biror ilmiy asar, maqola, o'qilgan kitob va sh.k. mazmunining qisqacha yozma va og'zaki bayoni; o'rganilgan ilmiy masalaning natijasi haqida axborot, tegishli

adabiyot va boshqa manbalarning qisqartirilgan shahrli tahlilini o'z ichiga olgan ma'lum mavzudagi ma'ruza. Referat, odatda, ilmiy axborot vazifasini o'taydi. Unda muayyan mavzu yoritilishi bilan birga, tegishli ilmiy nazariyalar, ilmiy xulosalar tahlil etilishi va tanqid qilinishi mumkin. O'zbekistonda referat ilmiy tadqiqot muassasalarida, oliy o'quv yurtlari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, umumiy ta'lim maktablarida ko'p qo'llanadigan didaktik vositadir. Umumiy o'rta ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar o'quvchilari hamda oliy o'quv yurtlari talabalarining fakultativ mashg'ulotlardagi maxsus axborotlari ham referat deyiladi. Dissertatsiya yuzasidan tayyorlanadigan referat (avtoreferat)da dissertatsiyaning asosiy mazmuni va xulosalari ifodalanadi.

Dissertatsiya (lot. *Dissertatio* – tadqiqot, mulohaza) – ilmiy daraja olish uchun taqdim etilgan va jamoatchilik oldida yakka tartibda himoya qilinadigan asar. Dissertatsiya himoya qilish dastlab o'rta asrlarda nemis tilida so'zlashadigan mamlakatlarning universitetlarida paydo bo'lgan. 16-17 asrlarda boshqa mamlakatlarga ham tarqala boshlagan. O'zbekistonda 1934- yilda *fan nomzodi* va *fan doktori* ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya himoya qilish joriy etila boshlandi. Fan nomzodi darajasini olish uchun himoya qilinadigan dissertatsiya yangi ilmiy-amaliy xulosa va tavsifalarni o'z ichiga olishi, uning muallifi (dissertant) tanlagan mutaxassislik bo'yicha chuqur ilmiy-nazariy bilimga ega ekanligini ko'rsatib berishi lozim. Fan doktori ilmiy darajasini olish uchun himoya qilinadigan dissertatsiya fan va texnikaning muayyan sohasidagi katta ilmiy-nazariy muammoni hal qilishi, fan va amaliyotning rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shilishi lozim. Nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari oliy o'quv yurtlari yoki ilmiy tadqiqot institutlarida tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan *ilmiy kengash*larda himoya qilinadi. Himoyaga taqdim etilgan dissertatsiyaning asosiy mazmuni alohida kitob tarzida yoki jurnal, ilmiy

to'plam va boshqa nashrlarda e'lon qilinishi lozim. Ualrning soni va hajmi O'zR Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tomonidan belgilanadi. Shuningdek, muhim ixtiro va kashfiyotlar, ayrim shaxs va jamoa tomonidan yangi mashina, boshqarish tizimi, turli asboblari, qurilma va texnologik jarayonlar yaratishdagi tugallangan ishlar, bir muallif tomonidan tayyorlangan mustaqil ilmiy va ilmiy metodik asar darajasida bo'lgan orginal darsliklar ham ikmiy ma'ruza shaklida taqdim etilishi mumkin.

Dissertatsiya himoyasi oldidan uning asosiy mazmuni va xulosalari yozilgan avtoreferat e'lon qilinadi. Himoya qilingan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari OAK tomonidan belgilangan muddatlarda tasdiqlangandan so'ng dissertatsiya himoya qilgan shaxsiga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi. Himaya qilingan dissertatsiyalar himoya o'tgan ilmiy muassasa kutubxonasida, shuningdek, muayyan soha kutubxonalarida saqlanadi.

O'zRda 2000-2001 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimida magistrilar uchun ilmiy yoki ilmiy texnikaviy mazmundagi magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish joriy qilindi.

Rezyume (fransuzcha rezume - qisqacha bayon qilmoq). Yozilgan, aytilgan yoki o'qilgan matn mazmunining qisqacha bayoni. Rezyume o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- tayanch (eng muhim) so'zlar;
- tadqiqot obyekti ;
- tadqiqot maqsadi;
- tadqiqot metodlari;
- olingan natijalar va ularning yangiligi;
- amaliy ahamiyati;
- tatbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi;
- qo'llanish sohasi;

muammolarni ilmiy asoslanganligiga bag'ishlangan dissertatsiyalarning maxsus ilmiy kengashlarda ochiq himoya natijasi asosida ilmiy kengash va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) ekspert kengashi tavsiyasiga binoan, oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarga OAK tomonidan beriladi. Ilmiy daraja muvofiqlashtirilgandan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekistonda chet davlatlardagi ilmiy muassasalar tomonidan berilgan faxriy ilmiy darajalarga ega mutaxassislar ham bor. Jumladan, fakultetimizda uzoq yillar faoliyat ko'rsatgan ustozimiz filologiya fanlari doktori, professor Mazluma Asqarova Rossiya Federatsiyasi Ta'lim akademiyasining akademigi unvoniga sazovor bo'lgan. Bunday ilmiy daraja O'zbekistonda fan, texnika va madaniyat sohasidagi yutuqlari uchun chet el olimlariga ham beriladi. Chet el oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot muassasalarida litsensiat, bakalavr, magistr, fan doktori ilmiy darajalari mavjud.

Ilmiy unvon – oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari va ilmiy tadqiqot institutlari *ilmiy xodimlariga* beriladigan unvon. O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlarida *dotsent* va *professor*, ilmiy tadqiqot institutlarida *katta ilmiy xodim*, *professor* ilmiy unvonlari joriy etilgan. Professor, dotsent, katta ilmiy xodim unvoni ilmiy darajasi bo'lgan va oliy o'quv yurti yoki ilmiy tadqiqot muassasasida pedagogik yoki ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish jarayonida yetarli malaka ko'rsatgan shaxslarga oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institut ilmiy kengashlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tomonidan beriladi.

Kurs ishi va unga qo'yiladigan talablar

Kurs ishi – oliy o'quv yurtlari talabalari tomonidan o'quv rejasidagi umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha bajariladigan mustaqil ish. Kurs ishi professor-o'qituvchilar rahbarligida talabalarda to'plangan

muammolarni ilmiy asoslanganligiga bag'ishlangan dissertatsiyalarning maxsus ilmiy kengashlarda ochiq himoya natijasi asosida ilmiy kengash va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) ekspert kengashi tavsiyasiga binoan, oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarga OAK tomonidan beriladi. Ilmiy daraja muvofiqlashtirilgandan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekistonda chet davlatlardagi ilmiy muassasalar tomonidan berilgan faxriy ilmiy darajalarga ega mutaxassislar ham bor. Jumladan, fakultetimizda uzoq yillar faoliyat ko'rsatgan ustozimiz filologiya fanlari doktori, professor Mazluma Asqarova Rossiya Federatsiyasi Ta'lim akademiyasining akademigi unvoniga sazovor bo'lgan. Bunday ilmiy daraja O'zbekistonda fan, texnika va madaniyat sohasidagi yutuqlari uchun chet el olimlariga ham beriladi. Chet el oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot muassasalarida litsentsiat, bakalavr, magistr, fan doktori ilmiy darajalari mavjud.

Ilmiy unvon – oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari va ilmiy tadqiqot institutlari *ilmiy xodimlariga* beriladigan unvon. O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlarida *dotsent* va *professor*, ilmiy tadqiqot institutlarida *katta ilmiy xodim*, *professor* ilmiy unvonlari joriy etilgan. Professor, dotsent, katta ilmiy xodim unvoni ilmiy darajasi bo'lgan va oliy o'quv yurti yoki ilmiy tadqiqot muassasasida pedagogik yoki ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish jarayonida yetarli malaka ko'rsatgan shaxslarga oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institut ilmiy kengashlariga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tomonidan beriladi.

Kurs ishi va unga qo'yiladigan talablar

Kurs ishi – oliy o'quv yurtlari talabalari tomonidan o'quv rejasidagi umumkasbiy va maxsus fanlar bo'yicha bajariladigan mustaqil ish. Kurs ishi professor-o'qituvchilar rahbarligida talabalarda to'plangan

nazariy bilimlardan muayyan masalani yechishda mustaqil foydalanish ko'nikmasini yoki mavzuni chuqur o'rganish maqsadida bajariladi. Kurs soati, odatda, referativ ishlari sifatida o'tkaziladi.

Kurs ishi talabalarning muayyan o'quv fanlarini o'rganishdagi yakuniy bosqichidir. Kurs ishining maqsadi – talabalarning oldiga qo'yilgan masalalarni yechishda nazariy bilimlarni mustahkamlash va chuqurlashtirish, mustaqil, ijodiy pedagogik, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish ko'nikmalarini takomillashtirish, ba'zi hollarda esa oldinga qo'yilgan ilmiy-amaliy natijalarni olishdan iborat. Kurs ishi – o'qituvchi rahbarligida talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ish turi bo'lib, talabaning nazariy bilimlarini mustahkamlashga, amaliy masalalarni hal qilishda o'z bilimidan mohirlik bilan foydalanish malakasini shakllantirishga, bitiruv ishini bajarishga va mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashga xizmat qiluvchi grafik qism va tushuntirish yozuvidan iborat.

Kurs ishi – ilmiy-tadqiqot ishi elementlarini o'zida mujassamlashtirgan, o'qituvchi rahbarligida umumilmiy va mutaxassislik fanlaridan bajariladigan talabalarning mustaqil ish turlaridan biri bo'lib, o'z oldiga talabalarning mustaqil ijodiy ishlash malakasi va ko'nikmalarini rivojlantirishni, zamonaviy ilmiy-tadqiqot usullarini egallashlarini, biror bir masalani, fan bo'limining mavzusini chuqur o'rganishlarini maqsad qilib qo'yadi.

Kurs ishi mavzusi oliy o'quv yurtlari kafedralarida ishlab chiqiladi va himoya qilinadi.

Kurs ishining hajmi A4 formatda 15-20 varaqdan iborat bo'ladi. Har bir sahifada 30 ta satr, har bir satrda 60 ta belgi (so'zlar orasidagi o'tishlar va tinish belgilarini hisoblagan holda) bo'lishi kerak. O'ngdan – 3 sm, chapdan – 1 sm, yuqoridan – 2,5 sm, pastdan – 2,5 sm joy qoldiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida adabiyotlar soni kamida 20-25 ta atrofida bo'lishi kerak.

Ilmiy tadqiqot ishida uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash maqsadida bitiruv malakaviy ishining ma'lum bir qismi yoki bobi kurs ishi mavzusi sifatida berilishi maqsadga muvofiqdir. Masalan, namuna sifatida keltirilayotgan "O'zbek tilshunosligida ergashgan qo'shma gaplar talqini" mavzusidagi bitiruv malakaviy ishini "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursi bo'yicha "Ta'lim bosqichlari dastur va darsliklarida ergashgan qo'shma gaplar muammosi" tarzida kurs ishi mavzusi sifatida berish mumkin. Shuningdek, ushbu mavzuni "O'zbek tili o'qitish metodikasi" kursi bo'yicha "Ergashgan qo'shma gaplar" mavzusini o'tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish" yoki "Ergashgan qo'shma gaplar" mavzusini o'tishda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish" kabi mavzularni kurs ishi sifatida berish maqsadga muvofiqdir. Natijada talabaning foydali ish koeffitsenti oshadi: mavzuni har tomonlama va keng idrok qilishi va yoritishiga, fanlar bo'yicha esa savodli, talab darajasidagi kurs ishlarining bajarilishiga erishiladi.

Kurs ishi rejasi namunasi:

Ta'lim bosqichlarida ergashgan qo'shma gaplar tasnifi masalalari

1. Kirish.
2. Oliy ta'lim dasturlarida ergashgan qo'shma gaplar masalasining qo'yilishi.
3. O'rta va o'rta umumta'lim dasturlarida ergashgan qo'shma gaplar muammosi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kurs ishi tituli namunasi:

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDOGOGIKA
UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

“Ro‘yxatga olindi ”

O‘quv ishlari bo‘yicha dekan muovini

_____ A.Xolmonov

“ ___ ” _____ 2012-y

5141100- O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta‘lim yo‘nalishi IV kurs
401-guruh talabasi Qurbonova Intizor Baxtiyarovnaning “Hozirgi o‘zbek
adabiy tili” kursi bo‘yicha “Ta‘lim bosqichlari dastur va darsliklarida
ergashgan qo‘shma gaplar muammosi” mavzusidagi

KURS ISHI

Ilmiy rahbar:

_____ N.Ahmedova,

“O‘zbek tilshunosligi” kafedrası

dotsenti, f.f.n.

“Himoyaga tavsiya etilsin”

“O‘zbek tilshunosligi”

kafedrası mudiri, f.f.n.

_____ M.Saparniyazova

“---” -----2013

TOSHKENT-2013

Kurs ishiga ilmiy rahbar xulosasi namunasi

Nizomiy nomidagi TDPU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti IV kurs 401-guruh talabasi Qurbonova Intizor Baxtiyarovnaning “O‘zbek tilshunosligida ergashgan qo‘shma gap talqini” mavzusida yozilgan kurs ishi himoyasi haqida

X U L O S A

Mavzuning dolzarbligi _____

Ishningrasmiylashtirilish holati _____

Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi _____

Mavzuning yoritilishi _____

Ilmiy xulosalanganlik darajasi _____

Yutuqlari _____

Kamchiliklari _____

Kurs _____ ishi _____ himoyasi _____ haqida _____ komissiya
xulosasi _____

Ilmiy rahbar F I Sh va imzosi _____

Kafedra mudiri F I Sh va imzosi _____

ILOVALAR

1-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDOGOGIKA
UNIVERSITETI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

“Himoyaga
tavsiya etilsin”
Fakultet dekani
____ f.f.n., dots. I. M. Azimov
“ ____ ” _____ 2013-y

5141100 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta‘lim yo‘nalishi IV kurs
401-guruh talabasi Qurbonova Intizor Baxtiyarovnaning “O‘zbek
tilshunosligida ergashgan qo‘shma gap talqini” mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:
____ M.Saparniyazova,
O‘zbek tilshunosligi kafedrası
mudiri, f.f.n.

Taqrizchilar:
____ R.Yunusov,
O‘zbek tilshunosligi kafedrası
professori, f.f.n.
____ N.Mahkamov,
O‘zFA Til va adabiyot instituti
Terminologiya bo‘limi mudiri, f.f.n.

“Himoyaga tavsiya etilsin”
O‘zbek tilshunosligi
kafedrası mudiri,
f.f.n. ____ M.Saparniyazova
“ ____ ” _____ 2013-y

TOSHKENT-2013

Mundarija

Kirish. BMIning umumiy tavsifi

I bob. Bog`langan qo`shma gaplarning sintaktik xususiyatlari

1.1. Bog`langan qo`shma gaplarni biriktiruvchi vositalar

1.2. Bolangan qo`shma gaplarning pozitsion xususiyatlari

II bob. Bog`langan qo`shma gaplarning semantik xususiyatlari

2.1. Bog`langan qo`shma gaplarda payt munosabati

2.2. Bog`langan qo`shma gaplarda shartlanganlik munosabati

III bob. BMIning amaliyotga tatbiqi

3.1. Ta`lim bosqichlari dastur va darsliklarida "Bog`langan qo`shma gap" mavzusining berilishi

3.2. Ochiq dars ishlanmasi

3.3. Olingan natijalar

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

3-ilova

BMINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Jahon tilshunosligining hozirgi taraqqiyoti davrida til sistemasi birliklarining amalda real qo`llanishi masalalari talqini o`ta dolzarb muammolardan biridir. Hozirgi zamon o`zbek tili sintaksisi, ayniqsa, uning qo`shma gap qismiga oid birmuncha tadqiqotlar qilingan bo`lishiga qaramay, bu sohada hali o`z yechimini kutayotgan muammolar kam emas. O`zbek tilshunosligi o`zining yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo`ydi. Bugungi kunda davr milliy til va milliy ma`naviyat mushtarakligi masalasiga daxldor yangidan-yangi vazifalarni qo`ymoqda. Prezidentimiz ta`kidlaganlariday: "Bugungi kunda davlat va jamiyat qurilishi sohasida mamlakatimiz oldida o`zining

miqyosi va qamroviga ko'ra ulkan vazifalar turibdi»⁶ Mustaqillik yillarida o'zbek xalqining o'z tili, adabiyoti, san'ati va tarixini yanada chuqurroq, uning o'ziga xos nafosatini ulug'lagan holda o'rganish imkoniyati kengaydi. Ma'naviyatimizning ajralmas qismi bo'lgan tilimizni tadqiq qilish ham istiqlol bergan ne'matlardan hisoblanadi. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, «Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analarilari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi»⁷. Shu ma'noda millat ma'naviyatining uzviy qismi bo'lgan o'zbek tilini o'rganish ulkan ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida gap semantikasi va strukturasi, qo'shma gaplarning mazmuniy xususiyatlari bilan bog'liq masalalar ko'p vaqtdan buyon tilshunoslar diqqatini o'ziga jalb qilib kelmoqda. Zotan, bu jarayonga bog'liq masalalarni chuqur tadqiq etish gap strukturasi yuz beradigan o'zgarishlarni atroflicha tavsiflashni talab etadi.

Ma'lumki, qo'shma gap sintaksisning yuqori sath birliklaridan bo'lib, qismlar o'rtasidagi semantik-sintaktik munosabatlar boshqa quyi sath birliklariga nisbatan o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ergashgan qo'shma gaplar bir necha marotaba monografik tadqiqotlar uchun manba bo'ldi. Ushbu masala to'g'risida tadqiqotlarda, ta'lim bosqichlarida masalaning o'rganilishi sohasida turli tuman qarashlar, yondashuvlar yuzaga keldi. Ularni tahlil qilish va o'rganish mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

⁶ Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш ва фуқаролик жамияти барпо этиш - устувор мақсадимиздир -Тошкент: Ўзбекистон, 2010. 17-б.

⁷ Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. 29-30 б.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ergashgan qo'shma gaplar masalasi o'zbek tilshunosligida G'.Abdurahmonov, M.Asqarova, A.Berdialiev, R.Sayfullaevlar tomonidan monografik tahlil qilingan.⁸

BM ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Nizomiy nomidagi TDPU o'zbek tilshunosligi kafedrasining «2012-2015 yillarga mo'ljallangan BMI mavzulari banki» istiqbol rejasi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi ergashgan qo'shma gaplarning sintaktik qurilishi hamda mazmuniy xususiyatlarining tadqiq darajasini o'rganish va ta'lim bosqichlari dasturlarida uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida masalaning qo'yilishini qiyosiy o'rganib chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Tadqiqotning bosh vazifasi sifatida ergashgan qo'shma gaplarning sintaktik-semantik xususiyatlarining o'zbek tilshunosligida o'rganilishini tadqiq qilish masalasi belgilandi. Shunga ko'ra tadqiqot ishini yoritish davomida:

- o'zbek tilshunosligida ergashgan qo'shma gaplar masalasining o'rganilish tarixini tadqiq qilish;
- ergashgan qo'shma gaplar masalasiga yondashuvlarni aniqlash;
- ergashgan qo'shma gap tasnifiy xususiyatlarini tadqiq qilish;
- dastur va darsliklarda ergashgan qo'shma gaplar masalasining qo'yilishini tadqiq qilish;
- ta'lim bosqichlarida ergashgan qo'shma gaplarni o'rganish masalalariga e'tibor qaratildi.

Tadqiqotning obyekti zamonaviy o'zbek yozuvchilarining nasriy asarlarida qo'llangan ergashgan qo'shma gaplar.

⁸ Абдурахмонов Ф. Қўшма гап синтаксиси. -Т.: Фан, 1964. Аскароро М. Ўзбек тилида эргашин формалари ва эргаш гаплар. -Т., 1966. Сайфуллаева Р.Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг формал-функционал таҳлили. -Т., 1994. Бердиалиев А. Семантико-сигнификативная парадигматика и синтагматические отношения в конструкциях сложноподчинённого предложения в конструкциях сложноподчинённого предложения узбекского литературного языка. -Т., 1989.

Tadqiqotning predmeti ergashgan qo'shma gaplar semantikasi va sintaksisini tadqiq qilish.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Ishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ma'naviyat, ma'rifat, milliy va umumbashariy qadriyatlar to'g'risidagi fikr-mulohazalari, milliy til va madaniyatning rivojlanish tarixi, taraqqiy etish yo'llari haqidagi qarashlari, hamda ergashgan qo'shma gaplarga oid qilingan tadqiqotlar metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, qiyosiy-tarixiy, tavsiflash, analiz va sintez, mantiqiylik kabi metodlar asosida tahlillar olib borildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Ishda o'zbek tilshunosligida mavjud qarashlar asosida ergashgan qo'shma gaplarning o'rganilish tarixi tadqiq qilindi. Bunda:

- o'zbek tilshunosligida ergashgan qo'shma gaplar tasnifi masalasiga munosabat bildirildi;
- ergashgan qo'shma gaplarning tadqiq darajasi aniqlandi;
- monografik tadqiqotlarda ergashgan qo'shma gaplar xususiyatlari qiyosiy tadqiq qilindi;
- ta'lim bosqichlari dastur va darsliklarida ergashgan qo'shma gaplar masalasining qo'yilishi o'rganildi;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy qimmati ergashgan qo'shma gaplar masalasi tadqiqining qiyosiy o'rganilishi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, tadqiqotning xulosalari va tahlil materiallari o'zbek tilining sintaktik qurilishi taraqqiyoti masalalariga oydinlik kiritadi, uni o'rganishda manba bo'la oladi. Ta'lim bosqichlarida ergashgan qo'shma gaplar mavzusiga doir dars ishlanmalarini yaratishda amaliy material sifatida xizmat qiladi, o'zbek tilining sintaktik qurilishini o'rganishga bag'ishlangan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda tadqiqot materiallaridan unumli foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. BMI Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida qo'shma yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan. Mavzu yuzasidan bitta ilmiy maqola nashr qilingan. Tadqiqot natijalari bo'yicha Mirobod tumanidagi 93-maktab pedagogik kengashida ma'ruza qilindi va ochiq dars o'tkazildi. (Ochiq dars ishlanmasi ilova qilinadi).

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 85 sahifani tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –Toshkent: O'zbekiston, 2009.
4. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.–Toshkent: Sharq, 1998.
5. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.–Toshkent: O'zbekiston, 1999.
6. Abdurahmonov G'. Ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar.–Toshkent: O'zFA, 1995.
7. Abdurahmonov G'., Sulaymonov A., Xoliyorov H., Omonturdiyev J. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Sintaksis. – Toshkent: O'qituvchi, 1979.
8. Abdurahmonov G'. Qo'shma gap sintaksisi. – Toshkent: O'qituvchi, 1964.
9. Abdurahmonov G'. O'zbek tili sintaksisida murakkab gaplar masalasiga doir // O'zbek tili adabiyoti masalalari. – Toshkent, 1962, № 3.
10. Akromov M. O'zbek tilida tuldiruvchi va hol. Filol. fan. nomz. ...diss. –Toshkent,1992.
11. Ashirboev S. Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi sodda gaplarning tarkibiy va ma'no xarakteristikasi. Filol. fan. d-ri. ...diss. – Toshkent, 1990.
12. Ashurova D., Ubaeva F., Boltaboeva H. Gapning uyushgan va ajratilgan bo'laklari. – Toshkent: O'zFA, 1962.

13. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish. Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1997.
14. Bozorov O. O'zbek tilida gapning kommunikativ (aktual) tuzilishi. Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2004.
15. Boltaboeva H. O'zbek tilida murakkab sodda gaplar. – Toshkent: Fan, 1969.
16. Boltaboeva H. Ajratilgan bo'laklar va ularning ma'no funksiyalari. – Farg'ona, 1957.
17. Boltaboeva H. Ajratilgan izohlovchilar. – Farg'ona, 1957.
18. Boltaboeva H. Hozirgi zamon adabiy tilida gapning ajratilgan izoh bo'laklari. Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1959.
19. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.
20. Mamatov A. Ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklar masalasiga doir. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1973, № 2
21. Mamatov A. Gapning izohlama bo'laklari haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1987, № 2.
22. Maskopov V. O'zbek tilida ilova konstruksiyalar haqida // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1970, № 6.
23. Mahmudov N. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmetriya. – Toshkent: O'qituvchi, 1984.
24. Mahmudov N. Presuppozitsiya va gap. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1986, № 6.
25. Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
26. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov., Solixo'jaeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent: Fan, 1992.
27. Nurmonov A. Tilni sistemali o'rganishda sintaksisning ayrim munozarali masalalari. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1988, № 5.

28. Nurmonov A. Ko'makchili konstruksiyalar presuppozitsiyasi (-dan tashqari kons-yali) // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent,1986; № 6.
29. Nurmonov A. Ko'p predikatli sodda gaplarda yarim predikatlik masalasi. // O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1990, № 1.
30. Omonturdiyev J. Gap bo'laklarining struktura tiplariga nisbatan termin qo'llash masalasi. O'zbek tilining leksik, grafik xarakteristikasi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 1988.
31. Omonturdiyev J. Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi sodda gaplarda kesimning struktura jihatdan tiplari. – Toshkent: Fan, 1965.
32. Rasulov I. Sodda gap sintaksisi. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili kursidan medodik ko'rsatmalar va konspektiv kurs. – Toshkent: O'zbekiston Maorif ministriligi. 1980.
33. Sayfullaev A. Hozirgi o'zbek tilida kirish bo'laklar. – Toshkent: Fan, 1972.
34. Sayfullaev A. Hozirgi o'zbek adabiy tilida undalma. –Toshkent:Fan, 1988.
35. Sayfullaev A. O'zbek tilida sodda gap qurilishida uchinchi darajali bo'laklar. – Toshkent: Fan. 1977.
36. Saidova R. Ajratilgan izohlovchilar va ularning semantik – stilistik xususiyatlari. // O'zbek tili stilistikasi masalalari. – Toshkent, 1982.
37. Toshaliyev I. Hozirgi o'zbek adabiy tilida kiritma konstruksiyalar. – Toshkent: Fan, 1976.
38. Ubaeva F. Hol va to'ldiruvchining chegarasi masalasi // Tilshunoslik masalalari. Tosh DU, 2 qism, 501-son. 1976.
39. Hojiev A. Lingvistik terminlar izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi. 1985.
40. Xoliyorov H., Omonturdiyev J. Ajratilgan bo'lakka doir. O'zbek tilining leksik-grafik holatlari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 1988.

41. Xoliqov H. Hozirgi o'zbek adabiy tilida murakkablashgan sodda gaplar uslubiyati. Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1993. – 134 b.
42. O'zbek tili grammatikasi. –Toshkent: Fan,1978.
43. G'afforov A. Hozirgi o'zbek tilida parsellyativ va ilovali qurilmalarning sintaktik derivatsiyasi. Filol. fan. nomz. ... diss. – Samarqand, 1997.
44. G'ulomov A. Sodda gap. – Toshkent: O'zFA, 1955.
45. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: O'qituvchi, 1965.
46. G'ulomov A. O'zbek tili sintaksisining ba'zi masalalari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1968. - № 2.

Malakaviy ishga berilgan “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası**XULOSASI**

Talaba Sobirova Dilnozaning prof.R.Yunusov rahbarligi ostidagi **“O‘zbek tilida subyektiv modallikning ifodalanishi”** mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi ko‘rib chiqildi va bu ish O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2010-yil 9-iyundagi 225-sonli buyrug‘i bilan “Oliy o‘quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo‘yiladigan talablar”ga to‘liq javob beradi.

Davlat Attestatsion Komissiyasida ushbu ish himoyaga kiritilishi mumkin.

Asos: “O‘zbek tilshunosligi” kafedrasining 2013 yil 30 apreldagi 16-son bayonnomasi

Kafedra mudiri:

M. Saparniyazova

«30» Aprel 2012 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: O‘zbek tilida subyektiv modallikning ifodalanishi

DAK qarori:

5141100 - O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 401-guruh talabasi Sobirova

Dilnozaning “O‘zbek tilida subyektiv modallikning ifodalanishi”

Bitiruv malakaviy ishi «_____» ga baholansin.

«_____» _____ 2013 yil

DAK raisi:

N.Mahmudov

DAK kotibi:

A.Xolmonov

Битирув малакавий ишларни баҳолашнинг умумий мезонлари

1	BMIning umumiy tavsifi talaba tomonidan qay darajada yoritilganligi;	10
2	BMI ni yozishda talabanning masalaga mustaqil yondasha olganligi va turli ilmiy-nazariy fikrlarga shaxsiy munosabati	10
3	BMI dan chiqarilgan xulosalarning nazariy-amaliy ahamiyati	10
4	BMI mavzusidagi ilmiy yangiliklar	10
5	BMI mavzusining amaliyot bilan aloqasi va bog'liqligi	10
6	Ishning BMI larga qo'yiladigan talablarga moslik darajasi	30
7	BMI himoyasida talabanning masalani to'g'ri va aniq yoritib bera olish mahorati, ilmiy nutq madaniyati, axborot texnologiyalaridan to'g'ri va samarali foydalanganlik darajasi	20
JAMI:		100 ball

Quyidagi hollarda talabanning BMI 0 - 54% ball bilan baholanishi mumkin:

-talaba mavzuning mohiyati va ahamiyati, xususiyatlari to'g'risida tushunchaga ega bo'lmasligi;

-BMI ni oldiga qo'yilgan talablar darajasida bajara olmasa, ko'chirmakashlik bilan bajarilgan bo'lsa;

- juda ko'p imlo xatolarga yo'l qo'ysa;

-bitiruv malakaviy ishini himoya qila olmasa, ya'ni BMI himoyasida mavzuni bayon qilib bera olmasa, ish haqida o'z tushunchasiga ega bo'lmasa.

Tilshunoslik terminlarining o'zbekcha-inglizcha-ruscha lug'ati

A

- Автосемантик гап — Avtosemantic proposal - Автоссемантическое предложение
Автосемантик сўзлар — Avtosemantic words - Автосемантические слова
Агглотинатив тиллар — Agglutinative languages - Агглютинативные языки
Агентив маъно — Agentive value - Агентивное значение
Адабий меъёр — Literary norm - Литературная норма
Адабий тил — Literary language - Литературный язык
Ажратилган аниқловчи — Separate definition - Обособленное определение
Ажратилган бўлак — Detached member of the (proposal) - Обособленный член (предложения)
Ажратилган тўлдирувчи — Separate supplement - Обособленное дополнение
Ажратилган ҳол — Separate fact - Обособленное обстоятельство
Ажратилиш (ажралиш) — Isolation - Обособление
Айирув боғловчилари — Disjunctive - Разделительные союзы
Айирув-чекаралов юкламалари — Videlitelno-restrictive Particle - виделительно-Ограничительные частицы
Академик грамматика — Academic Grammar - Академическая грамматика
Актив лугат — The active vocabulary - Активный словарь
Актив нутқ органлари — Active body language - Активные органы речи
Акустик фонетика — Acoustic Phonetics- Акустическая фонетика
Алифбо — Alphabet - Алфавит
Альвеоляр ундошлар — Alveolar consonants - Альвеолярные согласные
Амалий тилшунослик — Applied Linguistics - Прикладное языкознание
Амалий услубият — Applied stylistics - Прикладная стилистика
Аморф тиллар — Amorphous Languages - Аморфные языки
Аналитик тиллар — Analytical languages - Аналитические языки
Аналитик усул — Analytical method - Аналитический способ
Аналитик шакл — Analytical form - Аналитическая форма
Аналитик қурилиш — Analytical system - Аналитический строй

Анафорик сўз — Anaphoric word - Анафорическое слово

Аниқ келаси замон — Perfect future time - Определенное будущее время

Аниқланмиш — Defined - Определяемое

Аниқлов боғловчилари — Identification unions - Определительные союзы

Аниқловчи- Definition — Определение

Аниқловчили алоқа - Attributive relationship — Атрибутивная связь

Аниқловчили бирикма - Attributive combination of — Атрибутивное сочетание

Аниқловчили муносабат - Attributive relation — Атрибутивное отношение

Аниқловчили синтагма - Attributive Syntagma — Атрибутивная синтагма

Аниқловчили тузилма - Attributive construction — Атрибутивная конструкция

Аниқ от - Specific noun — Конкретное существительное

Антик грамматика - Antique grammar — Античная грамматика

Антонимлар - Antonyms — Антонимы

Антропологик лингвистика - Anthropological Linguistics — Антропологическая лингвистика

Анъанавий тилшунослик - Traditional linguistics — Традиционное языкознание

Арготизмлар - Argotizmy — Арготизмы

Ареал лингвистика - Areal linguistics — Ареальная лингвистика

Артикуляцион база - Articulating base — Артикуляционная база

Артикуляция усули - Way to articulate — Способ артикуляции

Артикуляция ўрни -Place of articulation — Место артикуляции

Асиллабик товушлар - Asillabicheskie sounds — Асиллабические звуки

Аслий сифатлар - Qualitative adjectives — Качественные прилагательные

Асл кўмакчилар - Own postpositions — Собственные послелогои

Асос - the basis of word — Основа

Асос маъно - Generating value — Производящее значение

Ассоциатив грамматика - Associative grammar — Ассоциативная грамматика

Атов гап - Denominative sentence — Назывное предложение

Атрибутив алоқа - Attributive relationship — Атрибутивная связь

Атрибутив бирикма - Attributive phrase — Атрибутивное словосочетание
Атрибутив конструкция - Construction attributive — Атрибутивная конструкция
Атрибутив муносабат - Attributive relation — Атрибутивное отношение
Атрибутив шакл - Attributive form — Атрибутивная форма
Аффиксал антонимия - Affixal antonymy — Аффиксальная антонимия
Аффиксал морфема - Morpheme affixal — Аффиксальная морфема
Аффиксал омонимия - Affixal homonymy — Аффиксальная омонимия
Аффиксал синонимия - Affixal Synonymy — Аффиксальная синонимия
Аффиксал сўз ясалиши - Affixal derivation — Аффиксальное словообразование
Аффикснинг варианты - Option affix — Вариант аффикса

Б

Бадий услуб - Artistic style — Художественный стиль
Бажарувчи шахс - The subject of — Субъект действия
Байналмилал лексика - International vocabulary — Интернациональная лексика
Белгилаш олмошлари - Attributive pronouns — Определительные местоимения
Белгили - Registration — Оформленный
Белгили тушум келишиги - Drawing accusative — Оформленный винительный падеж
Белгили қаратқич келишиги - Designed genitive — Оформленный родительный падеж
Белгисиз - Unformed — Неоформленный
Белгисиз тушум келишиги - Unformed accusative — Неоформленный винительный падеж
Белгисиз қаратқич келишиги - Unformed genitive — Неоформленный родительный падеж
Бетараф лексика - Neutral vocabulary — Нейтральная лексика
Бинар оппозиция - The binary opposition — Бинарная оппозиция
Бир бўғинлилик - Monosyllabizm — Моносиллабизм

- Биргалик даража - Mutual pledge — Взаимный залог
- Биргалик нисбати - Mutual pledge — Взаимный залог
- Биргалик эргашиш - Subordination — Соподчинение
- Бирика олиш - Compatibility — Сочетаемость
- Бириктирув боғловчилари - Connecting unions — Соединительные союзы
- Биринчи шахс - First person — Первое лицо
- Бирлик (тил бирлиги) unit (a unit of language, language unit) — Единица (единица языка, языковая единица)
- Бирлик сон - Singular — Единственное число
- Бир маънолик - Monosemy — Однозначность, моносемия
- Бир таркибли гап - Odnosostavnoe proposal — Односоставное предложение
- Битишув алоқаси - Contiguity — Примыкание
- Бобо тил - Proto (tongue-base) — Праязык (язык—основа)
- Бош бўлаклар - The principal terms of the proposal — Главные члены предложения
- Бош гап - Main clause — Главное предложение
- Бош келишик - The main case, the nominative case — Основной падеж, именительный падеж
- Бош маъно - Original value — Исходное значение
- Бош нисбат - The main mortgage, pledge dsystvitelny — Основной залог, действительный залог
- Бош сўз - Header word — Заголовочное слово
- Бош урғу - Primary stress — Главное ударение
- Бошқарилувчи сўз - Control word — Управляемое слово
- Бошқарув алоқаси - Management — Управление
- Бошқарувчи сўз - Upravlyayushee word — Управляющее слово
- Бош ҳарф - Uppercase — Прописная буква
- Боғлама - Ligament — Связка
- Боғланган қўшма гап - Compound sentence — Сложносочиненное предложение
- Боғли маъно - Non-free value — Несвободное значение

- Боғли (кўчмас) урғу - Non-free stress — Несвободное ударение
- Боғловчисиз эргашган кўшма гап - Conjunctionless Us — Бессоюзное сложноподчиненное предложение
- Боғловчисиз кўшма гап - Conjunctionless Compound proposal — Бессоюзное сложное предложение
- Боғловчи сўз - Connective word — Союзное слово
- Буйруқ гап - Motive proposal - an imperative sentence, exclamatory sentence — Побудительное предложение — Повелительное предложение — Восклицательное предложение
- Буйруқ-истак майли - Imperative — Повелительное наклонение
- Буйруқ-хитоб ундовлари - Imperative interjection — Императивные междометия
- Бурун ундошлари - Nasal consonants — Носовые согласные
- Бўёқ - Painting — Окраска
- Бўёқдорлик - Coloring — Окрашенность
- Бўлишли-бўлишсизлик категорияси - Category of positivity and negativity — Категория положительности и отрицательности
- Бўлишли шакл - Positive form — Положительная форма
- Бўлишсизлик олмошлари - Negative pronouns — Отрицательные местоимения
- Бўлишсиз феъл - Negative verb — Отрицательный глагол
- Бўлишсиз шакл - Negative form — Отрицательная форма
- Бўғиз товуши - Guttural — Гортанный звук
- Бўғиз ундоши - Guttural consonant — Гортанный согласный
- Бўғин - Syllable — Слог
- Бўғин кўчириш - Carry the words — Перенос слова
- Бўғинли ёзув - Syllabary — Слоговое письмо

В

- Вергул - Comma — Запятая
- Воситали келишиқ - Oblique case — Косвенный падеж
- Воситали объект - The object kosvenny — Косвенный объект

Воситали тўлдирувчи - Indirect — Косвенное дополнение

Воситасиз тўлдирувчи - Direct object — Прямое дополнение

Восита тил - The intermediate language — Язык-посредник

Г

Гап - Proposal — Предложение

Гап бўлаклари - The sentence — Члены предложения

Гап бўлакларининг тартиби - The order of the sentence — Порядок членов предложения

Гапнинг актуал бўлиниши - Actual division offers — Актуальное членение предложения

Гапнинг вазибалари - Supply function — Функции предложения

Гапнинг грамматик (синтактик) тузилиши - Grammatical (syntactic) sentence structure

Communication of the sentence — Грамматическая (синтаксическая) структура предложения

Коммуникативные члены предложения

Грамматик алоқа - Grammaticheskaya Us — Грамматическая связь

Грамматик антонимия - Grammatical antonymy — Грамматическая антонимия

Грамматик категориялар - Grammatical category — Грамматические категории

Грамматик кесим - Grammatical predicate — Грамматическое сказуемое

Грамматик маъно - Grammatical meaning — Грамматическое значение

Грамматик омонимия - Grammatical homonymy — Грамматическая омонимия

Грамматик синонимия - Grammatical synonymy — Грамматическая синонимия

Грамматик сон - Grammatical number — Грамматическое число

Грамматик услубият - Grammatical style — Грамматическая стилистика

Грамматик шакл - Grammatical form — Грамматическая форма

Гумон олошлари - Indefinite pronouns — Неопределенные местоимения

Гумон юкламаси - Undefined particle — Неопределенная частица

Д

Даража категорияси - The category of degree (the degree of comparison)—
Категория степени (степени сравнения)

Даражали оппозиция - Gradual opposition-opposition —Градуальная оппозиция

Дарак гап - Declarative sentences —Повествовательное предложение

